



Mavzu:Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani

Adabiyot

O‘qituvchi:Abdukadirova Muqaddam
Mo‘ydinovna



Pirimqul Qodirov



Pirimqul Qodirov 1928-yil 25-oktabrda Kengzo'l qishlog'ida tavallud topgan. 1951-yilda O'rta Osiyo Davlat Universiteti (hozirgi O'zMU) sharqshunoslik fakultetini va 1954-yili Moskvadagi Adabiyot institutining aspiranturasini bitirgan. Filologiya fanlari nomzodi. Birinchi kitobi – ‘Studentlar’ 1950-yili chop etilgan. Yozuvchi 1978-yilda “Yulduzli tunlar” asarini yozgan. Bundan tashqari, yozuvchi “Avlodlar dovoni” (1988) va “Ona lochin vidosi” (2001) kabi tarixiy asarlar muallifi hisoblanadi.

2010-yil 20-dekabrda Pirimqul Qodirov 82 yoshida bu dunyoni tark etgan.





“Yulduzli tunlar” romani


- “Yulduzli tunlar” – o’zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov ijodiga mansub tarixiy roman hisoblanadi. Asarda temuriy shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) hayoti haqida so’z boradi. P.Qodirov mazkur roman ustida o’n yil (1969-1978) ish olib borgan. “Yulduzli tunlar”ga “Boburnoma” va “Humoyunnomma” asarlari asos bo‘lib xizmat qilgan.



“Yulduzli tunlar” asari

“Yulduzli tunlar” asari zamonaviy o’zbek adabiyotining eng sara asarlaridan biri hisoblanadi. P.Qodirov 1980-yillarda “Yulduzli tunlar” asarining mantiqiy davomi sanalmish, Boburning farzandi Humoyun va nabirasi Akbar Jaloliddin Muhammad hayoti haqida hikoya qiluvchi “Avlodlar dovon” (“Akbar”) romanini yozadi.

“Yulduzli tunlar” asari dunyoning bir qancha tillariga, jumladan, rus, qoraqalpoq qirg’iz, qozoq, urdu, turkman, hind, hamda bengal tillariga tarjima qilingan.





Romanning qisqacha mazmuni



- Asarda shoir va shoh Bobur hayotini tasvirlash muhim o'rinni tutadi. "Yulduzli tunlar" keng qamrovli asardir. Unda Boburning shaxsiy xislatlari, oilaviy hayoti – onasi Qutlug' Nigor xonimga chin farzandlik tuyg'usi, opasi Xonzodabegimga inilik, farzandlaridan Humoyun va Gulbadanbegimga otalik mehri, birinchi umr yo'ldoshi Oyshabegim bilan o'tkazgan ko'ngilsiz damlar dramasi, Mohim bilan g'aroyib tanishuv daqiqalari, Mohimning Boburga cheksiz sadoqati, Panipat jangida halok bo'lgan Ibrohim Lo'diyning onasi
- (u Boburni zaharlashga erishgandan so'ng, ikki raqib ro'para keladi. Shunda Malika Bayda shohdan o'lim kutadi, bu bilan shoh ustidan manaviy tantanaga erishmoq, onani o'limga hukm qilgan shohning el oldida sharmanda qilmoqni istaydi, lekin buni sezgan Bobur uni jazolamay, o'zini tanti shoh ekanini ko'rsatadi) bilan munosabat hayojonli va go'zal ifodalangan.



Romanning qisqacha mazmuni



Adib butun asar mobaynida Boburning shoh, fotih sifatida qilgan shavqatsizliklari uning eng katta gunoh ekanligini ta'kidlaydi.

Asarda Bobur bilan yonma-yon Shayboniyxon (“imoni zamon”, “xalifai Rahmon” deya ulug’langan shaxs), Oyshabegim, Zuhrabegim, Xadichabegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim, Malika Bayda, Mohim, Humoyun, Qutlug’ Nigorxonim kabi tarixiy shaxslar obrazi ham yaratilgan. Zuhrabegim va Xadichabegimga munosabatidayoq Shayboniyxonning o’ta yovuz, shavqatsiz, uyatsiz, munofiq bir kimsa ekani ayon bo’ladi.

Zuhrabeginning bosqinchi xon “iltifotiga” umid bog’lab, uning maktubidagi soxta sevgi izhoriga ishonib huzuriga kelishining o’ziyoq bu ayol ma’naviy saviyasi qay darajada ekanini oshkor qiladi.



- Adabiyotimizda buyuk shoh va shoir hayotining ayrim bosqichlariga bag'ishlangan Oybekning „Bobur”, E. Vohidovning „Kelajakka maktub”. B. Boyqobilovnuig „Kun va tun”. X. Sultonning „Bobur-noma” singari turli janrdagi asarlari mavjud. „Yulduzli tunlar”da esa Boburning deyarli butun ongli hayoti yaxlit yaratilgan. Adib roman janrining yuksak talablariga amal qilish bilangina kifoyalanmay, janr tabiatini yanada boyitishga munosib hissa qo'shdi.
- Roman Bobur siymosini tarixiy haqiqatga mos, badiiy jihatdan jozibali tasvirlashi bilan e'tiborli. Humoyun og'ir betob bo'lib yotganida Bobur farzandiga shunday deydi; “*Sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu og 'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin... .*



*...Bobur umumiylar jumlilikda Humoyunning boshidan uch marra
aylandi-yu:*

- — *E, parvardigor! — deb iltijo qildi. — Menki, Boburmen,
agar jon berish mumkin bo'lsa, umr-u jonimni Humoyunga
qurban qildim! Azroyil mening jonimni olsin-u, xudo
Humoyunga shifo bersin!*“

Manbalar bu voqealarga haqiqatan tarixda ro'y berganini tasdiqlaydi. Humoyun ko'p o'tmay tuzaladi. Bobur qazosi shu voqealarga to'g'ri keladi.



- Roman ham ko'p o'tmay shu tasvirdan so'ng yakun topadi. Yozuvchi bu singari tarixiy faktlarni e'tirof etish bilangina cheklanmaydi, albatta. Taxayyulni erkin qo'yib, ularga badiiylikning jonli suvini ichiradi.
- Shu ma'noda romanda Bobur ruhi, ichki dunyosi, xayollari, orzu- armonlarining yuksak mahorat biian tasvirlanganini ta'kidlash zarur Onasi Qutlug' Nigorxonim bilan Boburning nafas olishidayoq bir- birlarini tushunishlari, inining Xonzodabegimni nainki so'z, balki yurak bilan anglay bilishi, shoirning havo emas ilhom bilan nafas olayotgan betakror sohir holatlardagi his-hayajonlar tasviri Pirimqul Qodirovning ruhiyat manzaralarini ko'rsatishdagi ustaligidan dalolat beradi.



Yozuvchi Boburni ko'p hollarda ichki kolliziya, ichki dramatizm, azobli, iztirobli vaziyatlarda ko'rsatadi. Qahramon o'z-o'zini ichdan tahlil etadi, qiyayotgan savollarga shu yo'sinda javob izlaydi va topadi. O'zga qahramonlar bilan ba'zan so'z orqali emas, ichdan, vujud tili orqali muloqotda bo'ladi. Bu esa qahramon ruhiyatini teran yoritish imkonini beradi. Mana, Boburning podshoh, sarkarda, shoir, muarrix sifatidagi buyuk fazilatlaridan tashqari oddiy bir inson sifatidagi ko'rinishi. Zaharlangan Bobur ruhiyati shunday chiziladi:



Butun asardavomida qahramonlarni, ularning o'y-kechinmalarini, harakat qilayotgan shart-sharoitlarni. muhitni, tabiatni. hatto olinayotgan nafaslar harorattni. ayni lahzada pardalardan ichkariga yoyilayotgan nur tarovati va hokazolarni shu qadar mahorat bilan badiiy go'zal tasvirlaydiki, kitobxon asar o'qiyotganini unutib, shu muhitda yashnyotgandek his etadi o'zini.

Bobur Hindistonda sultanatni boshqarganda podsho bo'lishning shon-shavkati bilan bir qatorda, adadsiz pushaymonlarni, iztiroblarni, „xatolig"-u, „yuzi qarolig"larni boshidan kechirgan. Vatan sog'inchi bilan o'rtangan. Bu yo'nalishda uning ajoyib, dilbar she'rlari ham bor. Yozuvchi qahramoni tabiatiga doir ana shunday tarixiy gavhar dalillarni saralab, badiiy yaxlitlik bilan nurlantiradi. Natijada, yozuvchining mahoralidan nurlangan harorat badiiy jozibaga aylanadi va butun asur hujayralariga iliqlik baxsh etadi.



“Boshidan o’tgan o’lim dahshati hamon xayolidan nari ketmasdi. Uning joni shuncha vaqt qil uchida osilib turganini o’ylasa, beixtiyor vahmi kelardi. Shu qil uzilsa, o’lim deb ataladigan zulmat qa’rigoqulab tushishini ikki kun davomida muttasil his qilish unda yashash istagini behad kuchaytirib yuborgan edi. Hayotning bir lahzasi, bir uchquni dunyoning barcha boyliklari-yu, toj-u taxtlaridan ham aziz ekanligi unga endi astoydil sezildi”.



Qahramon ruhiyatini teran, jonli, samimiy ochish o'z-o'zidan bo'ladigan ish emas. Buning uchun yozuvchi shunday his tuyg'ularni o'z qalbidan o'tkaza olishi kerak. Pirimqul Qodirov o'zi aytganidek, adib „tarixiy shaxslarning ichki dunyosiga o'z ichki dunyosi orqali yol topadi”.

- Mustaqillik davriga kelib, „Yulduzli tunlar”dek tarixiy asarning qadr-qimmati, ahamiyati yanada oshdi. Roman Vatan, millat, ulug' ota-bobolarimizga mehr-muhabbatini yanada e'zozlashga undaydi.



Mavzu yuzasidan savollar

1. “Yulduzli tunlar” asari nechi yil davomida yozilgan?
2. “Yulduzli tunlar” asari qachon nashr qilingan?
3. “Yulduzli tunlar” asarining mantiqiy davomi qaysi asar?
4. “Yulduzli tunlar” asari muallifi kim?
5. “Yulduzli tunlar” asarining bosh qahramoni kim



- Uyga vazifa :
- “Yulduzli tunlar” romanidagi timsollarga tavsif berish